ZAMONAVIY BAHOLASH METODIKASINING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY TATBIQI

Maxmudova Zilola Akram qizi
24-maktab o'qituvchisi
E-mail zilolamaxmudova32@gmail.com

Qabul qilindi: 02.11.2025
Ko'rib chiqildi: 03.11.2025
Tasdiqlandi: 04.11.2025

Kalit so'zlar:
Zamonaviy baholash, Baholash metodikasi, Nazariy asoslar, Amaliy tatbiq, Ta'lim sifati, Kompetensiyaga asoslangan yondashuv, Formativ baholash.

Annotatsiya. 21- Asrda ta'lim tizimida sifat,samaradorlik muhim tushuncha sanaladi. Bu tushunchalarni takomillashtirishda esa baholashning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Endilikda zamonaviy ta'lim jarayonida an'anaviy baholash usullari samara bermaydi. Ularning o'rniga zamonaviy baholashni tatbiq etish joiz. Bu orqali biz o'quvchilarning kompetensiyalarini to'liq ko'ra olamiz va ular to'laqonli o'z bilim,ko'nikma va malakalarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Asosiy qism. Dastavval,baholash nima uchun kerak degan savolga javob topsa. Baholash o'quvchi faoliyati davomida uning bilim,ko'nikma va malaka natijasini o'lchaydigan,tahlil qiladigan va ularning o'sishiga yordam beradigan vosita sanaladi. Zamonaviy baholashda uning diagnostik,summativ va formativ shakllari mavjud. Ilmiy adabiyotlarda quyidagicha baholash shakllari ham keltirib o'tilgan:

- kompetensiyaga asoslangan baholash
- kriterial baholash tizimi
- raqamli va avtomatlashtirilgan baholash
- o'zini-o'zi baholash va o'zaro baholash

Kompetensiyaga asoslangan baholashda o'quvchilarning bilimi ya'ni nazariy ma'lumotlarn qay darajada o'zlashtira olayotganligi,ko'nikmasi-amaliy ishlarni qay tartibda bajara olayotganligi,malaka olingan bilim va ko'nikmadan kelb chiqqan holda uni o'zi mustaqil qo'llay olishi,fikr yurita olishi,xulq-atvori baholanadi. Demak,bilimlar faqatgina nazariy tomonda qolib ketmasdan uni hayotga tatbiq qilishni ham o'rganadilar. Bu jarayon o'quvchini faollikka,ijodiy yondashuvga va mustaqil fikrlashga undaydi. Shu o'rinda kompetensiya haqida bir olimning jumlasini keltirib o'tmoqchi edim. Xutorskoy A.Vning so'ziga ko'ra, kompetensiya deganda biz bir-biriga bog'liq bo'lgan shaxs xususiyatlarining ma'lum bir doiradagi yuqori sifatli va samarali faoliyatini amalga oshirish uchun zarur omillarni tushunamiz. Yana bir olim Okulovskiy O.I kompetensiyaga asoslangan yondashuvni ta'limga e'tibor qaratadigan usul

sifatida ta'kidlagan va o'rganilgan ma'lumot miqdori emas,turli sharoitda adekvat harakat qilish qobilyati deya kompetensiya so'ziga ta'rif beradi.yuqoridagi olimlarning jumllarini kompetensiya so'zi bilan yaqindan tanishish uchun kiritdim.

Kriterial baholash –natijani belgilangan mezonlar asosida baholashdir. Har bir baho nimaga asoslanganligi ko'rsatiladi. A.A Krasnoborovaning fikriga qaraganda,kriterial baholash effektiv jarayon bo'lib,o'quvchi o'z ishini boshqalardan qay darajada farqli ravishda bajarganini ko'radi va o'ziga nisbatan ishonch his qiladi.

Raqamli baholash o'quvchini turli elekron qurilma ya'ni gadjetlar orqali baholashdir. Bunda bolalar online testlarni google forms,quizizz kabi platformalarda bajaradilar. Raqamli baholash tez,adolatli,shaffof bo'ladi. O'qituvchi uchun ham ortiqcha yuk kamayadi.Ta'lim sifatiga samarali ta'sir qiladi. Vaqtdan unumli foydalanish imkonini beradi va natija tahlili bir qancha osonlashadi.O'z-o'zini baholash- o'quvchi o'zining bilim,ko'nikma va malakalarini baholash demakdir. Bola o'zini mustaqil holda tahlil qiladi. Hamda uni tanqidiy va mustaqil fikrlashga,mas'uliyatga o'rgatadi.o'z-o'zini baholash metodikasining ham bir necha tamoyillari mavjud bo'lib,ular quyidagi tamoyillar sanaladi;

-aniqlilik;Baholash real fakt va holatlarga asoslangan bo'ladi.

-doimiylik;Baholash davriy amalga oshiriladi.

-obyektivlikka intilish;bunda hissiyotlarga tayanmagan holda,aniq va ravshan ma'lumotlar asosida qarorga kelish

-rivojlanishga yo'naltirilganlik; natija rivojlaishga,o'sishga xizmat qilishi kerak.

Yuqorida sanab o'tilgan bir qancha baho shakllari bevosita ta'lim sifatiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ta'lim sifati esa jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil negizidan biri sanaladi. Baholashning turli shakllari bo'lsada,ta'lim muassasasida formative baholash turi keng qo'llaniladi. Xulosa ornida shuni ta'kidlash kerakki,o'quvchining bilim,ko'nikma va malakasini o'lchaydigan va bolaning yanada kuchli o'qishiga turtki bo'la oladigan,unga doimiy motivatsiya beradigan,ta'lim sifatini rivojlatirishda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan,bolani tanqidiy fikrlashga,mustaqil qarorlar chiqarishga undaydigan vosita sifatida baholashga o'qituvchi mas'uliyat bilan yondashishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Shukurova M.X Kompetensiya va kompetentlik

2.Sagimbaeva A The model of a system for criteria-based assessing of students' functional literacy and its developmental impact

3.Xusanova N.B Summative va formative baholash tizimi

4.M.Yo'ldosheva Ona tili fanidan o'quvchilarning bilim,ko'nikma va malakalarini baholash metodikasi